
Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari yanada kuchaytiriladi

So'nggi yillarda mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuv tamoyili qo'llanilishini yanada kengaytirish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Jumladan, joriy yilning 10 avgust kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-sonli Farmon qabul qilinib, mamlakatimizda jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyatini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda yaxshilash, qonun ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarini ro'yobga chiqarish, jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida quyidagilar sud-tergov faoliyatini yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

shaxsning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, protsessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat protsessida dalillarni to'plash va mustahkamlash, ularga baho berish tizimini ilg'or xorijiy tajribada keng qo'llaniladigan isbotlash standartlarini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni fosh etish borasidagi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, sodir etilgan har bir jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini hamda shaxs, jamiyat va davlatga yetkazilgan zarar to'liq qoplanishini ta'minlash;

shaxsga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash bilan bog'liq qilmishlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish, shuningdek, bunday qilmishlar uchun javobgarlikni kuchaytirish;

jinoyat ishlarini tergov qilish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, surishtiruv va dastlabki tergov organlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va kadrlar salohiyatini oshirish;

jinoyatchilikning oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va ularda qonunga itoatgo'ylik ruhini shakllantirish mexanizmini joriy qilish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi va Inson huquqlari bo'yicha milliy markazining jinoyatlarni fosh etish faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflariga rozilik berildi:

tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon ~~qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ariza, tushuntirish yoki ko'rsatuvlar olishni~~ mazkur jinoyat ishi yurituvida bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirish (belgilangan tartibda himoyachidan voz kechilgan hollar bundan mustasno);

jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish muddatini u haqiqatda ushlangan vaqtdan boshlab hisoblash;

shaxs amalda ushlangan yoki uni jinoyat ustida ushlab turish bilan bog'liq tezkor tadbir amalda yakunlangan yoxud gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi haqidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab u bilan bog'liq protsessual harakatlarni o'tkazishdan oldin uning advokat bilan xoli uchrashishi ta'minlanishi shartligini belgilash;

aybiga iqrorlik bo'yicha kelishuv institutini joriy qilish. Bunda, ayrim jinoyatlar toifalari bo'yicha shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan hollarda surishtiruv va dastlabki tergov organlari bilan yozma kelishuv tuzilishi hamda unga nisbatan sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan ko'p bo'lmagan miqdori va (yoki) muddatigacha jazo tayinlash;

jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchini og'ir kasalligi yoki uzoq muddatga chet davlatga chiqib ketish zarurati tufayli kechroq so'roq qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularning ko'rsatuvlarini gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, prokuror yoki advokatning iltimosnomasiga ko'ra sud tomonidan taraflarning ishtirokida oldindan mustahkamlab qo'yish (deponirovaniye) tartibini joriy qilish;

o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar bo'yicha, shuningdek, shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasi ko'rib chiqilayotganda himoyachining ishtirok etishi shartligini belgilash.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi va Inson huquqlari bo'yicha milliy markazining jinoyat ishlarini sudga ko'rishni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflariga rozilik berildi:

agar sud tergov vaqtida sudlanuvchining unga ilgari ayblov qo'yilmagan jinoyatni sodir etganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoyat javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash haqida iltimosnomani sudga kiritish huquqini ish bo'yicha barcha taraflarga berish;

agar sud tergov vaqtida javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, ushbu shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslarni aniqlash haqida iltimosnomani sudga kiritish huquqini ish bo'yicha barcha taraflarga berish;

shaxsga e'lon qilingan ayblov, jinoyat ishi sudning qaysi instansiyasida ko'rilayotganligidan qat'i nazar, yarashuv instituti doirasiga tushadigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasi yoki qismiga o'zgartirilgan hollarda yarashuv institutini qo'llash tartibini joriy qilish;

sudlanuvchining jinoyat sodir etilishiga daxli bo'lmaganligi asosi bilan oqlov hukmi chiqarilgan hollarda jinoyatni haqiqatda sodir etgan shaxsni aniqlash va ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish uchun jinoyat ishini prokurorga yuborish tartibini o'rnatish.

Shuningdek, mazkur Farmon bilan quyidagilar taqiqlandi:

tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblash;

shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan hollarda (ekspertiza yoki taftish o'tkazish talab etiladigan hollar bundan mustasno), uni guvoh tariqasida so'roq qilish, shuningdek, unga gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining protsessual huquqlari tushuntirilguniga qadar undan biron-bir yozma yoki og'zaki ko'rsatuvlar olish;

ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmagan hollarda ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilish;

surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va boshqa sud protsessi ishtirokchilarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish yoki so'roq qilish (ular bilan bog'liq bo'lgan alohida ish yurituvga ajratilgan jinoyat ishi yoki sudning yozma topshirig'i mavjud hollar bundan mustasno).

Bundan tashqari ushbu Farmon bilan nunday tartib o'rnatildiki, unga muvofiq:

tergovga qadar tekshiruv yoki tergovda ushlangan shaxsni va ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan mahkumni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek, vaqtincha saqlash va tergov hibsonalarida saqlanayotgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini guvohlantirish ularning yoki advokatining iltimosnomasiga asosan 24 soat ichida vaqtincha saqlash va tergov hibsonalari yoki jazoni ijro etish muassasalari tasarrufida bo'lmagan tibbiy muassasalar xodimlari tomonidan amalga oshirilishi shart, bunda xarajatlar iltimosnoma kirituvchi taraf hisobidan qoplanadi;

og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etilmasligiga oid qoida voyaga yetmaganlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi;

voyaga yetmaganlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari hamda pensiya yoshiga yetgan shaxslarga nisbatan uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

A.Ergashev,

jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tuman sudining raisi.

